

ZAMIN-POYDEVOR-BINO TIZIMINING ISHONCHLILIGINI BAXOLASH USULLARINI TADQIQ QILISH

Stajor tadqiqotchi, **Qo‘ldashev A. G‘.**

Toshkent arxitektura va qurilish instituti.

t.f.d.Professor, **Maxmudov S. M.**

Toshkent arxitektura va qurilish instituti.

2- Конструкциян ва композицион материаллар олишнинг замонавий уsulлари ва технологиялари.

Annotatsiya: Ushbu maqola bino inshootlarini mustaxkamlik va zilzila bardoshligi, ishonchligini usullari, turlarini tadqiq qilish to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: zamin, poydevor, bino, inshootlar, grunt, tuproq, devorbop, materiallar, kampazitsion materiallar.

Аннотация: Данная статья посвящена методам и видам исследований прочности и сейсмостойкости строительных конструкций.

Ключевые слова: грунт, фундамент, здание, сооружения, грунт, грунт, кладка, материалы, походные материалы.

Abstract: This article is about methods and types of research on durability and earthquake tolerance of building structures.

Key words: grunt, fundament, zdanie, soorujenia, grunt, grunt, kladka, materialy, pokhodnye materialy.

Asosiy qism.

Respublikamizning turar joy fondining katta qismini mahalliy materiallardan qurilgan xususiy uylar tashkil etadi. Xususiy uylarni qurishda devorbop material sifatida paxsa va sinch, pishiq va xom g‘ishtdan keng foydalaniladi. QMQ 2.01.03-19

ning 3.7.1 bandidagi talablarga muvofiq pishgan g‘isht uchun tabiiy sharoitda quritilgan butun xom g‘ishtning siqilishga chekli chidamliligi 3,5 mPa (35 kg/sm²) dan kichik bo‘lmasligi kerak. Ilgari bo‘lib o‘tgan zilzilalardan ma‘lumki, qurilish materiali sifatida tosh, paxsa, sinch, xom va pishiq g‘isht singari mahalliy materiallardan qurilgan, seysmik mustahkamlik talablari darajasida loyihalangan binolarning buzilishidan insoniyatning katta qismi zarar ko‘radi. Bu ko‘rinishdagi binolardan dunyoning ko‘p mamlakatlarida foydalaniladi, ularning konstruksiyasiga zilzilabardoshlikni oshiruvchi elementlar kiritish muhim masalalardan hisoblanadi. [1]

Mavjud bino va inshootlar poydevori zaminining gruntlarini o‘rganish ishlarini bino va inshootlar kengaytirilayotgan, rekonstruksiya qilinayotgan va texnik qayta jihozlanayotganda, yangi imoratlarni mavjud bino va inshootlar yaqinida qurilayotganda, hamda bino va inshootlar deformatsiya va avariya uchragan hollarda amalga oshirish kerak. Mavjud bino va inshootlar poydevori zaminining gruntlarini o‘rganish paytida muhandislik geologik sharoitlarning bino va inshootlar qurilishi va ulardan foydalanish davrida o‘zgarishini, relef, geologik tuzilish, gidrogeologik sharoitlar, gruntlarning tarkibi, holati, fizik, mexanik va kimyoviy xususiyatlarining, muhandislik geologik jarayonlar faolligining o‘zgarishini ham qo‘shib, quyidagi vazifalarni yechish uchun ma‘lumotlar olish maqsadida aniqlash lozim: bino va inshootlarning poydevoriga tushadigan muvaqqat va doimiy og‘irliklarni oshirib, ularning ustiga qo‘shimcha qavatlar qurish ehtimolini aniqlash uchun; deformatsiyalar sabablarini aniqlash va ularning kelajakda rivojlanishining oldini olish chora – tadbirlarini belgilash, hamda bino va inshootlardan foydalanishning normal sharoitlarini tiklashni amalga oshirish uchun; bino va inshootlar zamini gruntlarining holatini, ularning qurilishi to‘xtatilgandan uzoq vaqt o‘tgandan keyin bino va inshootlarning ustiga qo‘shimcha qavatlar qurish ehtimoli va sharoitlarini aniqlash uchun; mavjud bino va inshootlar va ular yoniga quriladigan qo‘shimcha bino va inshootlar orasidagi joyning holatini aniqlash va ularning barqaror turishini ta‘minlovchi GOST 25100 talablariga ko‘ra ularni sinflar, guruhlar, guruhchalar, tiplar, turlarga ajratish uchun ularning tarkibi, holati, fizik, mexanik va kimyoviy

xususiyatlarini aniqlash uchun, ularning normativ va hisobiy ko'rsatkichlarini, gruntlarning chuqurlik va maydon bo'ylab bir xilda tuzilganligini aniqlash uchun, muhandislik geologiya elementlarni ajratish uchun, ob'ekt qurilishi va undan foydalanish jarayonlarida gruntlarning holati va xususiyatlari o'zgarishini bashoratlash uchun amalga oshirish kerak. Gruntlarni tekshirish sistemasini (namunalar olish tartibini), ularning xususiyatlariga, makonda o'zgarishiga bog'liq ravishda, hamda muhandislik geologiya izlanishlarining maqsadidan kelib chiqib (bino va inshootlarning mas'ullik darajasi, ularning konstruktiv xususiyatlari, loyihalash bosqichi va b.) izlanishlar dasturida tegishli hisoblarni amalga oshirib belgilash kerak.

Xulosa.

Bundan maqsad muhandislik geologiya izlanishlar natijalari to'g'risidagi texnik hisobotda, bu sharoitlarning hozirgi holatini baholash bilan birga keltirish kerak.

Adabiyotlar.

1. XUSUSIY TURAR JOY BINOLARINING ZILZILABARDOSHLIGINI TA'MINLASH Toshkent – 2021
2. SHAHARSOZLIK NORMALARI VA QOIDALARI. ShNQ 1.02.09-15 24-bet
3. ShNQ 1.03.01-08 Korxonalar, bino va inshootlarni qurishga doir loyiha hujjatlarining tarkibi, ularni ishlab chiqish.
4. ShNQ 1.03.02.-04. Hududlarni rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish bo'yicha shaharsozlik hujjatlarining tarkibi, ularni ishlab chiqish tartibi, kelishish va tasdiqlash to'g'risidagi yo'riqnomalar.
5. ShNQ 1.03 06.-99 Texnik – iqtisodiy asoslashlarning, qurilish loyihalari va shaharsozlik hujjatlarining davlat ekspertizasini o'tkazish tartibi bo'yicha yo'riqnomalar.
6. ShNQ 1.03.10.-06 Qishloq xo'jalik korxonalarini hududlarini tashkil qilish, qishloq aholi punktlarining hududini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish bo'yicha loyihalash – rejalashtirish hujjatlarining tarkibi, ularni ishlab chiqish tartibi, kelishish va tasdiqlash to'g'risidagi yo'riqnomalar.

7. QMQ 1.02.07-97 Qurilish uchun muhandislik izlanishlari.
8. QMQ 2.01.09-97 O‘ta cho‘kuvchan gruntlar va yer ishlovidagi hududlarda bino va inshootlar.
9. QMQ 2.01.15-97 Turar joy binolarining texnik xizmatini amalga oshirish to‘g‘risida Nizom. QMQ 2.02.01-98 Bino va inshootlar zaminlari.
10. QMQ 2.02.03-98 Qoziq poydevorlar.
11. QMQ 2.03.11-97 Qurilish konstruksiyalarini korroziyadan himoya qilish.
12. QMQ 2.04.02-97 Suv ta‘minoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar.
13. QMQ 2.06.05-98 Tuproq materiallaridan to‘g‘onlar.
14. QMQ 3.01.02-00 Qurilishda texnika xavfsizligi.
15. QMQ 3.01.03-97 Qurilishda geodeziya ishlari.
16. QMQ 3.02.01-97 Tuproq inshootlari, zamin va poydevorlar. MSN 2.03.02-2002 Hududlarning, bino va inshootlarning xavfli geologik jaraenlardan muhandislik muhofazasi. Asosiy qoidalar.
17. SNiP 11-02-96 «Инженерные изыскания для строительства». Основные положения.